

MAKTAB DARS JARAYONLARIDA PSIXOLOGIYA TA'LIMI

G'afforova Zilolaxon Botirjon qizi

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 49 maktab psixologi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida psixologik xizmatning o'rni, ahamiyati, ta'lim tizimiga psixologik yondashuv, bugungi ta'lim tizimidagi psixologik muommolar va yechimlar, psixologik xizmatning vujudga kelishi haqida fikr bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixologik xizmat, psixologik mexanizm, psixologik xizmatning vujudga kelish tarixi, nazariya, amaliyot, psixologik muommo va yechimlar*

KIRISH

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy prinsipi gumanizm g'oyasiga asoslangan. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning mavjud vaziyati tahlil qilinganida, psixologik xizmatning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining psixik va psixologik salomatligini saqlash degan xulosaga kelingan.

Bunga qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, bu xizmatning asosiy maqsadlari sirasiga o'sib kelayotgan shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qilish va ta'lim-tarbiyaning bola rivojlanishiga ijobiy ta'sirini kuchaytirish hisoblanadi.

O'zbekiston xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat tizim sifatida shakllangan. Biroq, bugungi shakllangan tizim sifati qay darajada? Bu tizim o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni sifatli bajara olyaptimi? Tizimni ham shakl, ham mazmun jihatdan rivojlantirish uchun ehtiyoj mavjudmi? Agar shunday ehtiyoj mavjud bo'lsa, u nimalardan iborat? O'zbekiston xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatni zamonaviy darajaga ko'tarish va yuqori sifatli xizmatni taklif eta olish uchun qanday o'zgarishlarga qo'l urishimiz mumkin? Ilmiy tadqiqotimiz davomida mazkur savollarga javob topish uchun harakat qilyapmiz.

Mazkur ish doirasida O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. 18 ta savoldan tashkil topgan, savollarning 11 tasi yopiq va 7 tasi ochiq variantlardan iborat bo'lgan mazkur so'rovnoma aniqlovchi xarakterga ega bo'lib, Respublikaning jami 3 ta mintaqasini qamrab oldi (Farg'ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi). Mazkur uchta mintaqaning har biridan 50 nafardan jami 150 nafar maktab amaliyotchi psixologlarida tadqiqot o'tkazildi. Mazkur so'rovnoma natijalarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qilish natijasida bir qancha muammolar aniqlandi.

Asosiy qism. Buguni kunda ta'lim tarbiya jarayonida, ta'lim tizimining samarali faoliyatida psixologik xizmatning o'z o'rni va ahamiyati sezilarli darajada o'sib bormoqda. Har bir maskan, muassasa, tashkilotda, insoning ruhiyatini o'rganish uni naqqoshlash amaliyotchi psixologning vazifasidir. Bugungi kunda ta'lim tizimining

rivojlanishi va takomillashi natijasida insonlarga , o'quvchilarga , ularning ruhiyatiga qaratilgan ta'lim- tarbiyani chuqurlashtirish bugungi ta'limimizning bosh maqsadidir. Ma'lumki , zamonaviy psixologik xizmat asoslari fanining bosh maqsadi ta'lim - tarbiya muhitidagi o'quvchilar , talabalarning individual imkoniyatlarini o'rganish hamda o'quv faoliyatining intellektual, emotsional, kognitiv, motivatsion sohadagi jihatlarini ilmiy jihatdan tekshirishdan iborat. Psixologik xizmatning respublikamizdagi holati. Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinarkan ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O'zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o'rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko'lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, O'zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo'lmaydi. O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bolgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bolsada, O'zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog'liq izlanishlar va tadqiqotlar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo'lib keldi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki , psixologik xizmatda yordam ko'rsatiladigan psixologik maslahatning o'zi nima? Psixologik maslahat deb bunga muhtoj bo'lganlarga maslahat va tavsiyalar sifatida mutaxassis psixolog tomonidan bevosita ko'rsatiladigan psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan amaliy psixologiyaning alohida sohasiga aytiladi.

Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o'rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Ko'pincha psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, odatda begona odamlardan xoli va yakkama-yakka, yuzma-yuz o'tkaziladi. Psixologik maslahat bir necha o'n minutdan yarim soatgacha, ikki va undan ortiq soat davom etadigan psixologning mijoz bilan shaxsiy suhbati shaklida o'tkaziladi. Mana shu suhbat davomida mijoz o'z muammolari, o'zi to'g'risida gapirib beradi. Psixolog o'z navbatida muammoning mohiyatini tushunib yetish, bu muammoni o'zi uchun ham mijoz uchun ham oydinlashtirishga harakat qilib diqqat bilan tinglaydi, maslahatlar davomida mijozning shaxsini baholanadi, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib mijozga

uning muammosini qanday qilib amaliy xal etish bo'yicha ilmiy, asosli tavsiyalar beriladi.

Psixolog - maslahatchi tomonidan mijozga beriladigan maslahat va takliflar ko'p xollarda ulardan mustaqil foyda- lanib, mijoz psixolog-maslahatchi tomonidan yordamsiz o'z muammosini o'zi to'la xal eta olishiga qaratilgan bo'ladi. Psixologik maslahat - bu deyarli barcha imkoniyat va psixik sog'lom odam uning hayotida yuzaga keladigan barcha psixologik muammolarni xal eta olishiga, ishonchiga asoslangan odamlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish yuzaga kelgan amaliyotdir. Psixologik maslahat berish - insonlarga hayoti davomida duch keladigan muommolarga yechimlar berish, tavsiyalar berishda mijozga amaliy yordam ko'rsatishdir. Ta'lim tizimida ham psixologik xizmatning o'z o'rnini bor. Bu jarayonda psixologlar faoliyat yuritib kelmoqda. Maktabgacha, maktab, oliy ta'lim tizimida ham psixolog shtatlar mavjud bo'lib, o'quvchilar va talabalarga amaliy yordam ko'rsatish, o'quvchilar va talabalarning ruhiy holatini aniqlab, ularga psixologik yordam ko'rsatish amaliy tadbirlari amalga oshirilmoqda .

Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmatning konseptual, ilmiy, tashkiliy, moddiy va metodik jihatdan muammolari mavjud.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak.

Konseptual jihatdan:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini rivojlantirishning 10 yillik rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak;

Ilmiy jihatdan:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qiluvchi, mahalliy muammolarni doimiy aniqlab, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyati yutuqlarini modifikatsiya qiluvchi va amaliy psixologiya instrumentlarini mahalliy sharoitdagi validliligini ta'minlab beruvchi ilmiy-tadqiqot markazi (think tank) tashkil etilishi kerak.

Tashkiliy jihatdan:

- O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmat modeli ishlab chiqilishi zarur;

Moddiy jihatdan:

-maktab psixologlari moddiy sharoit va vositalar (psixolog xonasi, kompyuter, printer, kanselyariya jihozlari) bilan ta'minlash dasturi qabul qilinishi zarur;

Metodik jihatdan:

- psixologik xizmat faoliyati uchun "Psixolog kitobi" ishlab chiqilishi kerak;
- psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqilishi yoki modifikatsiya qilish uchun ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilishi zarur.

- Psixologik xizmatning psixologik ma'rifat va tashviqot hamda psixologik maslahat maslahat yo'nalishlarida aniq amaliy instrumentlarga asoslangan metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim;

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, xalqning ma'naviyatini, ruxiyatini yuksaltirish uchun biz birinchi navbatda ta'lim tizimining dastlabki o'choqlaridan boshlab psixologik xizmatni yo'lga qo'yish chora - tadbirlari ko'rib chiqilishi kerak va bunga amaliy yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirilishi kerak, ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim tizimida psixologiya sohasida kvotalar sonini oshirish, bugungi kunda raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimidagi asosiy maqsadlardan biri desak yangilashmaymiz. Har bir ta'lim tizimidan boshlab, psixolog xizmat ish o'rinlarini kengaytirish, bu sohaga amaliy yordam ko'rsatish respublikamizda psixologik xizmatning o'sish ko'rstkichlarini samarali hal etish vazifalari, bugunda ta'lim tizimining yetakchi vazifalaridan desak yangilashmaymiz. Psixolog, amaliyotchi psixolog – inson ruhiyatining bunyodkori, naqqoshidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmanov.A Jumanazarov. Yo. Akbarov.S “YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI” Muammoli maruzalar matni Namangan 2009
2. Zufarova M.E.UMUMIY PSIXOLOGIYA O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT 2010
3. Pedagogika G'G'A.Q.Munavvarovning tahriri ostida . – Toshkent, O'qituvchi, 1996.
4. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. –T.: O'qituvchi, 1999.
5. Дубровина И. В. Психологическая служба образования: научные основания, цели и средства //Психологическая наука и образование. - 1998. - Т. 3. - №. 2.
6. Jimerson S. R., Oakland T. D., Farrell P. T. (ed.). The handbook of international school psychology. - Sage, 2007.